FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 10 - yanvar 7-11-167-Q/22 Quvasoy shahar hokimligi

Shaharning qishloq aholi punktlari hamda ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish qoidalari”ning 118-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shaharning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 1-ilovaga muvofiq, qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar hokimligi axborot xizmati Z.Abdullajonov, “Isfayram” ro‘znomasi muxarriri O‘.Karimovalarga shahar hokimligining “Isfayram” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini, qog‘oz va elektron shakllarda, bir kunlik muddatda, tegishli davlat organlari hamda tashkilotlariga yetkazilishini tashkillashtirsin.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosarlari X.Xoldarov, Sh.Tursunbaevlar zimmasiga yuklansin.

shahar hokimi **To‘rakulov Z. K.**

shaharning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish t a r i f l a r i

Ilova yetkazib berish
2022 йил 10 январдаги
7-11-167-Q/22-сон қарорига
1-илова

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo'lgan o'rtacha masofasi (km)	MFYsoni	Hudud bo'yicha o'rtacha tarif		
				so'm/tn-km	so'm/tn	so'm/litr
1.	Quvasoy shahri	7	30	995	8457	8
	jami	**7**	**30**	995	8457	8

Қувасой шаҳар ҳокимининг
2022 йил 10 январдаги
7-11-167-Q/22-сон қарорига
2-илова

TARIFLARI

shaharning qishloq hududidagi ijtimoiy soha ob'ektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

Q Q ssiz

№	Hududlar nomi	suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo'lgan o'rtacha masofasi (km)	ijtimoiy muassasa soni	Hudud bo'yicha o'rtacha tarif		
				so'm/tn-km	so'm/tn	so'm/litr
1.	Quvasoy shahar	8	8	995	8457	8
	jami	8	**8**	995	8457	8